

REFERENCE:

1. Holmes W. (2022). Ethics of AI in Education: Towards a Community-Wide Framework // *International Journal of Artificial Intelligence in Education*. P. 504–526. – DOI:10.1007/s40593-021-00239- 1.
2. Zawacki-Richter O., Marín V.I., Bond M., Gouverneur F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education // *International Journal of Educational Technology in Higher Education*. Vol. 16. – Art. 39. – DOI: 10.1186/s41239-019-0171-0.
3. Kukulska-Hulme A. (2020). Mobile-assisted language learning. P. 1–7. – DOI: 10.1002/9781405198431.wbeal0768.pub2.
4. Beatty K. (2013). *Teaching and Researching Computer-Assisted Language Learning*. London: Routledge.
5. Stockwell G. (2016). *Mobile Language Learning Technologies*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. UNESCO. (2023). *Guidance on Generative Artificial Intelligence in Education and Research*. Paris: UNESCO, 36 p.
7. Godwin-Jones R. (2018). Emerging technologies: AI and language learning // *Language Learning & Technology*. Vol. 22, No. 3. P. 1–7.
8. Traxler J. (2018). Learning with mobiles in developing contexts // *International Journal of Mobile and Blended Learning*. Vol. 10(2). P. 1–5.
9. Little D. (2007). Language learner autonomy: Some fundamental considerations revisited // *Innovation in Language Learning and Teaching*. Vol. 1(1). P. 14–29.
10. Dörnyei Z. (2014). *Motivation in Second Language Learning*. London: Routledge.
11. Luckin R., Holmes W., Griffiths M., Forcier L.B. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. London: Pearson, 210 p.
12. Alam A. (2021). Possibilities and challenges of artificial intelligence in education // *Journal of Educational Technology Systems*. Vol. 49(3). P. 1–15.
13. Hwang G.J., Tu Y.F. (2021). Roles and research trends of artificial intelligence in language education // *Computers & Education: Artificial Intelligence*.
14. Chen X., Zou D., Xie H., Cheng G. (2020). Artificial intelligence in language education: A review of empirical studies // *Interactive Learning Environments*. P. 1–16.
15. Reinders H., Pegrum M. (2016). Supporting language learning on the move // *Language Learning & Technology*. Vol. 20(2). P. 36–52.
16. Khalil M., Ebner M. (2017). Learning analytics: Principles and constraints // *Learning, Design and Technology*. P. 1–23.
17. Selwyn N. (2019). *Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education*. Cambridge: Polity Press.

UO‘K(UDC, УДК): 81-26

INGLIZ TILINING O‘ZBEK YOSHLAR JARGONIGA TA‘SIRI⁴¹

Zamira Hakimova Xurram qizi

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**tayanch-doktoranti,**Toshkent, O‘zbekiston**E-mail: zx.hakimova@uzswlu.uz**ORCID ID-0009-0001-4245-7944*

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada ingliz tilining zamonaviy o‘zbek yoshlar jargoniga ko‘rsatgan lingvistik va ijtimoiy-madaniy ta‘siri sotsiolingvistik yondashuv asosida o‘rganilgan va tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi, inglizcha so‘z va iboralarning o‘zbek yoshlarining nutq madaniyatiga qanday shaklda kirib kelayotganini aniqlash, ularning ma‘no, shakl va uslubiy xususiyatlarini izohlash, shuningdek bu jarayonning ijobiy va salbiy oqibatlarini baholashdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida ingliz tilidagi ko‘p qo‘llaniluvchi til birliklarining ishlatilish chastotasi, semantik yuklamasi, ijtimoiy-madaniy ta‘sirlari, nutqda foydalanilish holatlari, fonetik va morfologik moslashuv mexanizmlarini aniqlash kabilar belgilandi. Tadqiqot doirasida Toshkent, Andijon, Termiz, Navoiy va Farg‘ona shaharlaridagi 11-35 yosh oralig‘idagi 51 nafar respondent o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi, shuningdek zamonaviy o‘zbek yoshlari ko‘p foydalanadigan Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi 40 dan ortiq post va izohlar tahlil qilindi. Tadqiqotni amalga oshirishda yordam beruvchi metodlar sifatida empirik kuzatuv, sotsiolingvistik yondashuv, kontent tahlili va tilshunoslik nazariyalariga tayanuvchi interpretatsiya usullari qo‘llanildi. Tadqiqot natijalarga ko‘ra, ingliz tilidagi global qo‘llaniluvchi leksik birliklar o‘zbek yoshlar orasida zamonaviylik, emotsional ifoda, tejamkorlik va ijtimoiy o‘zini namoyon qilish vositasi sifatida faol ishlatilmoqda. Ayniqsa, “like”, “chill”, “relax”, “bro”, “sorry”, “repost” kabi so‘zlar fonetik jihatdan minimal o‘zgarish bilan nutqqa singmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon adabiy til me‘yorlarining buzilishi, lingvodegradatsiya xavfi va milliy tilning ijtimoiy obro‘sigacha salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi. Maqolada tilga kirib kelayotgan yangi unsurlarni inkor etmasdan, ularni ongli tarzda tahlil qilish va sog‘lom muvozanatni ta‘minlash zarurligi asoslab berilgan. Xulosa o‘rnida, ingliz tilining o‘zbek yoshlar jargoniga ta‘siri globallashuv, texnologik taraqqiyot va xalqaro nufuz bilan bog‘liq bo‘lib, bu so‘zlar til tizimiga moslashmoqda. O‘zlashmalar tilni boyituvchi omil sifatida qaralayotgan bo‘lsada, madaniyat va milliy tilni asrash muhimligicha qolmoqda. Shu sababdan, bu jarayonni ilmiy kuzatish, til siyosatini shakllantirish va inglizcha so‘zlarga o‘zbekcha muqobillar yaratish davlat darajasidagi muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

KALIT SO‘ZLAR

Fonetik moslashuv, globallashuv, ingliz tili, lingvodegradatsiya, morfologik moslashuv, yoshlar jargon, lingvoekologiya, neologizm, zamonaviy ko‘rinish, til siyosati.

Received: February 06, 2026**Accepted:** February 13, 2026**Available online:** May 10, 2026⁴¹ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Hakimova Z. Ingliz tilining o‘zbek yoshlar jargoniga ta‘siri. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 2(10) — B. 367-392.

THE INFLUENCE OF THE ENGLISH LANGUAGE ON UZBEK YOUTH JARGON**Zamira Khakimova Khurram kizi***PhD student of
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan**E-mail: zx.hakimova@uzswlu.uz
ORCIDID-0009-0001-4245-7944*

ABSTRACT

This scientific article examines the linguistic and socio-cultural influence of the English language on the modern Uzbek youth jargon through a sociolinguistic approach. The main objective of the study is to identify how English words and expressions are being integrated into the speech of Uzbek youth, to explain their semantic, structural, stylistic features and to evaluate both the positive and negative consequences of this process. The study sets out to explore the frequency of usage, semantic load, sociocultural impact and phonetic and morphological adaptation mechanisms of commonly used English linguistic units. For the research, a survey was conducted among 51 respondents aged 11 to 35 from the cities of Tashkent, Andijan, Termez, Navoi, and Fergana. In addition, over 40 posts and comments from Instagram which is a widely used social network by Uzbek youth were analyzed. The research employed empirical observation, sociolinguistic methodology, content analysis, and theoretical interpretation methods. The results reveal that globally used English lexical items are actively utilized among Uzbek youth to show modernity, emotional expression, linguistic economy, and social identity. Words like “like,” “chill,” “relax,” “bro,” “sorry,” and “repost” are being incorporated into everyday speech with minimal phonetic modification. At the same time, this process is found to potentially disrupt the norms of the literary language. The article emphasizes the importance of analyzing these linguistic innovations and maintaining a balance without denying the introduction of new words. In conclusion, the influence of English on Uzbek youth jargon is closely linked to globalization, technological advancement. While such borrowings are considered as linguistic enrichment, the need to preserve national language and culture remains crucial. Therefore, it is an important responsibility of the state to formulate language policy, monitor this process and develop Uzbek equivalents for those English words.

KEY WORDS

Phonetic adaptation, globalization, English, linguistic degradation, morphological adaptation, youth jargon, linguoecology, neologism, modern appearance, language policy.

**ВЛИЯНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКСКИЙ
МОЛОДЕЖНЫЙ ЖАРГОН****Хакимова Замира Хуррам кизи**

Базовый докторант

Узбекского государственного
университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

E-mail: zx.hakimova@uzswlu.uz

ORCID ID-0009-0001-4245-7944

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье на основе социолингвистического подхода изучено и проанализировано лингвистическое и социокультурное влияние английского языка на современный узбекский молодежный жаргон. Основная цель исследования – определить, в какой форме английские слова и выражения входят в речевую культуру узбекской молодежи, интерпретировать их смысловые, формальные и стилистические особенности, а также оценить положительные и отрицательные последствия этого процесса. Задачи исследования: определить частоту употребления, семантическую нагрузку, социокультурные влияния, случаи употребления в речи, механизмы фонетической и морфологической адаптации часто употребляемых языковых единиц в английском языке. В рамках исследования был проведен опрос среди 51 респондента в возрасте 11-35 лет в Ташкенте, Андижане, Термезе, Навои и Фергане, а также проанализировано более 40 постов и комментариев в социальной сети Instagram, которую часто использует современная узбекская молодежь. В качестве вспомогательных методов при проведении исследования были использованы эмпирическое наблюдение, социолингвистический подход, контент-анализ и методы интерпретации, основанные на лингвистических теориях. Согласно результатам исследования, лексические единицы английского языка активно используются среди узбекской молодежи как средство эмоциональной оценки, экономии и социального самовыражения. В частности, такие слова, как “like”, “chill”, “relax”, “bro”, “sorry”, “repost”, проникают в речь с минимальными фонетическими изменениями. В то же время было установлено, что этот процесс может привести к нарушению норм литературного языка, связан с риском лингводеградации и негативно влияет на социальный престиж национального языка. В статье обоснована необходимость сознательного анализа новых элементов, входящих в язык, и обеспечения здорового баланса, исключающего их полное отрицание. В заключении было определено, что влияние английского языка на узбекский молодежный жаргон связано с глобализацией, технологическим прогрессом и международным престижем, благодаря чему эти слова адаптируются к языковой системе. Хотя заимствования рассматриваются как фактор, обогащающий язык, по-прежнему остается важным сохранение культуры и национального языка. Поэтому научное наблюдение за этим процессом, формирование языковой политики и создание узбекских альтернатив английским словам является важной задачей на государственном уровне.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Фонетическая
адаптация, глобализация,
английский язык,
лингвистическая деградация,
морфологическая адаптация,
молодёжный жаргон,
лингвоэкология, неологизм,
современный облик, языковая
политика.

KIRISH

Mustaqillikdan soʻng Oʻzbekistonda chet tillarini oʻrganishga bir qator imkoniyatlar berilishi barobarida, oʻzbek tiliga bir qancha xorijiy soʻzlar oʻzlashma sifatida kirib keldi. Yoshlar tili hamisha jamiyatdagi lingvistik oʻzgarishlarning eng birinchi akslantiruvchisi hisoblanadi. Sababi yoshlar jamiyatdagi yangi oʻzgarishlarga tez moslashadilar, yangi soʻz va iboralarni ham tez oʻzlashtiradilar. Shu sababdan yoshlar jargoni hamisha tilshunoslik uchun qiziqarli tadqiqot obyekti sanalib kelgan. Soʻnggi yillarda ingliz tilining global taʼsiri natijasida uning leksikasi oʻzbek yoshlar nutqiga keng kirib kelmoqda. Inglizcha soʻzlar va iboralar koʻpincha yoshlar oʻrtasida zamonaviylik, emotsional ifoda va ijtimoiy oʻzini namoyon qilish vositasi sifatida qabul qilinadi. Bu jarayon tilning leksik, fonetik va morfologik qatlamlarida oʻziga xos moslashuvlarga sabab boʻlyapti. Shuningdek, bu hodisa oʻzbek tilining zamonaviy oʻzgarishlari va til siyosati kontekstida muhim tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Yoshlar jargonida ingliz tilidan kirib kelayotgan soʻz va iboralarning ijtimoiy-madaniy asoslarini aniqlash, ularning nutq madaniyatiga qanday taʼsir qilayotganini oʻrganish, shuningdek, ushbu jarayonning til adabiyati va milliy tilga salbiy taʼsirlarini baholash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Shu munosabat bilan ushbu maqolada ingliz tilining zamonaviy oʻzbek yoshlar jargoniga koʻrsatgan lingvistik va ijtimoiy-madaniy taʼsiri sotsiolingvistik yondashuv asosida oʻrganiladi.

Oʻzbekistonda xorijiy tillarni oʻrganishga va oʻrgatishga boʻlgan talabning keskin ortib ketishiga sabab boʻlgan omillar avvalida davlatimizning chet tillarini oʻrganishni rivojlantirishga boʻlgan qoʻllab-quvvatlashi va ragʻbatlantirishi turishi barchaga maʼlumdir. Binobarin Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-sonli “Xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-sonli “Yoshlarni xorijiy tillarga oʻqitish tizimi samaradorligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisidagi” qarorlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Prezident qaroriga muvofiq Yoshlar ishlari agentligi zimmasiga bir qator qoʻshimcha vazifalar yuklangan. Ushbu vazifalar qisqacha quyidagilarni qamrab oladi: 1) Yoshlarni xorijiy tillarga oʻqitish jarayonlarini takomillashtirish choralari; 2) Xususiy til oʻrgatish markazlarini qoʻllab-quvvatlash va rivojlantirish; 3) Xalqaro sertifikatlar olgan yoshlarga moddiy ragʻbatlantirish tizimini joriy etish va shu kabilar (OʻzRes. PQ-239, 2024). IELTS sertifikatidan 7 yoki undan yuqori ball olgan 30 yoshgacha boʻlgan yoshlarning imtihonga ketgan xarajatlari davlat tomonidan toʻlab berilmoqda. C1 darajali xalqaro yoki milliy sertifikatga ega xorijiy til oʻqituvchilar maoshiga 50 foizgacha ustama toʻlab berilmoqda. Bundan tashqari 2016-yildan

boshlab umumiy o'rta ta'lim tizimida ingliz tilini birinchi sinfdan boshlab o'qitish yo'lga qo'yilganligini ham e'tirof etish lozim.

Keyingi o'rinda turuvchi sabablar ro'yxatidan texnologik rivojlanish, iqtisodiy omil va globalizatsiyani keltirish mumkin. Mehnat bozoridagi aksariyat yuqori maosh taklif qila oluvchi takliflar nomzodning xorijiy tilni bilishi va buni sertifikat bilan tasdiqlay olishini majburiy qilib qo'ydi. Ingliz tilidan sertifikat olish oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarining ingliz tili qismi uchun maksimal ball berishni yo'lga qo'yilishi ham bu jarayonni tezlashtirishga o'z hissasini qo'shdi. Bunda tashqari oxirgi yillarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish aholining barcha qatlamlari o'rtasida ommalashdi. Bu esa o'ziga xos "tarmoq leksikasi"ni yaratilishiga yordam berdi.

HeadHunter kompaniyasi tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma O'zbekistonda 18 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan 195 nafar respondent ishtirok etgan. So'rovnoma natijalariga ko'ra 41% respondent kuniga o'rtacha 1 soatdan 3 soatgacha vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazishi ma'lum bo'ldi. Shu bilan birga respondentlarning 35% i kuniga 1 soatdan kam, 13% dan ko'prog'i esa kuniga 3 soatdan ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarga ajratadi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy O'zbekistonlik hayotida muhim rol o'ynaydi. Ular kundalik hayotning ajralmas qismiga, muloqot, ma'lumot olish va ko'ngil ochish vositasiga aylandi. Shu bilan birga, so'rovda qatnashganlarning aksariyati ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanishni hayotning boshqa sohalari bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashtiradi (Mansurova, 2024, 7-8). Ijtimoiy tarmoqlarda hamma tilda, jumladan, o'zbek tilida ham kontent yetarli bo'lsa-da, tarmoq imkoniyatlari, funksiyalarini ifodalovchi tushunchalar, asosan, ingliz tilida bo'lgani sababli, uning foydalanuvchilar "layk" (like), "komment" (comment), "repost" singari so'zlarni to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirdilar.

Yoshlarning zamonaviy ko'rinish istagi ham bu tendensiyani kuchayishiga hissa qo'shmoqda. Yana boshqa fikrlarga ko'ra inglizcha so'zlar asosan yoshlarga tushunarli bo'lganidan nutqlarini kattalardan sirli qilish maqsadida inglizcha so'zlardan ko'proq foydalanishlari ham mumkin.

Avlodlar nazariyasi — bu turli yillarda tug'ilgan insonlar guruhini ularning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, qadriyatlar va dunyoqarashlari asosida o'rganishga yo'naltirilgan konsepsiyadir. Mazkur nazariyaga ko'ra, har bir avlod o'z vaqtining tarixiy, siyosiy va texnologik sharoitlari ta'sirida shakllanadi va bu holat ularning hayotga bo'lgan munosabati, aloqa uslubi hamda kundalik tilida ham aks etadi. Ko'plab tadqiqotchilar, jumladan, N. Xau va V. Strauss avlodlarni quyidagicha tasniflaydi: "Baby Boomer" (1946–1964), "X" avlodi (1965–1980), "Y" avlodi yoki "Milleniallar" (1981–1996), hamda "Z" avlodi (1997–2012). Hozirgi kunda,

ayniqsa Z avlodi vakillari texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va global til sifatida ingliz tilining keng tarqalgan ta'siri ostida shakllanmoqda. Shu bois, bu avlodning tili va kommunikatsiya uslubida o'ziga xos yangiliklar kuzatiladi.

“Z avlodi uchun raqamli texnologiya hayotning ajralmas qismidir. Ular yangi gadgetlarni osonlik bilan o'zlashtiradilar, muloqot va o'zini namoyon qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadilar va onlayn manbalardan ma'lumot oladilar. Bunday odamlar uchun katta matnlarni, ayniqsa kitoblarni o'qish yoki ustida ishlash, uzun video va filmlarni tomosha qilish juda qiyin” (Davletova, 2024 153). Z avlodi raqamli texnologiyalar bilan o'sgan, axborotni ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar orqali qabul qiladigan, individualizm va klip tafakkurga ega bo'lgan avloddir. Ushbu xususiyatlar ularning muloqot uslubiga va leksik tanloviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada ingliz tilidagi so'zlar va iboralar ularning jargoni tarkibiga “zamonaviylik” va “ijtimoiy faollik” belgisi sifatida kirib bormoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda turli matnlar va til uslublariga duch kelish o'smirlarning so'z boyligini kutilmagan tarzda boyitadi. Postlar, izohlar va xabarlar orqali ular standart so'zlardan tashqari, sleng, og'zaki ifodalar va tez rivojlanayotgan yangi atamalarni o'zlashtiradilar. Xeshteglar va qisqartmalar esa vaqtinchalik bo'lsa-da, yangi so'z va iboralarni tilga olib kiradi. O'smirlar ijtimoiy tarmoqlardagi muayyan mavzularga oid suhbatlar orqali shu sohalarga xos lug'atni egallaydilar va ba'zan yangi so'zlar yaratishda ham faol bo'ladilar. Rasmiy til me'yorlaridan xoli bo'lgan bu muloqot shakli ularga yangi so'zlarni sinab ko'rish, moslashtirish va turli auditoriyalar uchun tilni mos ravishda ishlatish imkonini beradi. Bu esa ularning moslashuvchan va boy ifoda imkoniyatlariga ega bo'lishiga xizmat qiladi (Rianto, 2024, 36). Bu jarayonda o'smirlar nafaqat yangi so'zlarni o'zlashtiradilar, balki ularni o'z ehtiyojlari va muloqot kontekstiga moslab qayta ishlaydilar. Ayniqsa, ingliz tilidan kirib kelgan atamalar tez-tez qo'llanilib, o'zbek tilidagi ifodalar bilan aralashib ketmoqda. Natijada, yoshlar orasida kod almashtirish singari lingvistik hodisalar kuchaymoqda. Bu holat ularning tilini yanada moslashuvchan, ammo aytish joizki adabiy til me'yorlardan chetga chiqadigan qiladi. O'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning katta qismi ijtimoiy tarmoqlarda inglizcha so'z va iboralardan tez-tez foydalanishini tan olgan. Ayniqsa, 16-25 yosh oralig'idagi respondentlar kundalik yozishmalarida “okay”, “sorry”, “like”, “bro”, “ASAP” kabi atamalardan muntazam foydalanishini bildirgan. Bu esa ingliz tilining yoshlar jargoniga tobora chuqurroq singib borayotganini ko'rsatadi.

1. Muammoning dolzarbligini tilshunoslikda yangi yo'nalishlardan biri sanalgan lingvoekologiya ham tasdiqlaydi. Lingvoekologiya (yoki ekolingvistika) — tilshunoslikning yo'nalishlaridan biri bo'lib, u til holati va til (nutq) muhiti bilan bog'liq masalalarni o'rganadi. Bu yo'nalish til va nutq madaniyatining


rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni, shuningdek, tilni salbiy ta'sirlardan — jumladan, ijtimoiy va madaniy ehtiyojlar bilan asoslanmagan tashqi va ichki o'zlashmalar, nutqning vulgarizatsiyasi, leksik va frazeologik yemirilish (ya'ni tilning leksik boyligidan ayrilishi) kabi hodisalardan himoya qilish yo'llarini o'rganadi (didactic.ru (n.d.). Retrieved from <https://didacts.ru/termin/lingvoekologija.html>). Lingvoekologiyaning asosiy tushunchalaridan biri – buzilish (degradatsiya) va tiklanish (rehabilitatsiya)dir. Ushbu kategoriya til buzilishining xavfli belgilarini o'rganish, ularga qarshilik ko'rsatish, til sofligini saqlab qolish uchun qulay sharoit yaratish, barqaror rivojlanishni ta'minlash hamda tilning jozibadorligini himoya qilishni o'z ichiga oladi. Barqaror rivojlanish – hozirgi va kelajak avlodlarning talab va ehtiyojlarini xavf tug'dirmay qondirishni anglatadi (Quldashv, 2021, 20). Ushbu yondashuv, ayniqsa, yoshlar tilida kuzatilayotgan tezkor o'zgarishlar fonida dolzarb hisoblanadi. Lingvodegradatsiya xavfi, ya'ni so'z boyligining qisqarishi, leksik normalarning buzilishi yoki chet tillar ta'sirining kuchayishi til ekotizimini beqarorlashtirishi mumkin. Shu bois, tilga ijtimoiy tarmoqlar va globalizatsiyaning boshqa yo'nalishlari orqali kirib kelayotgan yangi unsurlarni nazorat bilan kuzatish, ularni tahlil qilish va zarur hollarda ularning sog'lom integratsiyasini ta'minlash til siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Til jozibadorligini saqlash va yoshlar orasida onglilikni oshirish esa lingvoekologik yondashuv doirasidagi asosiy vazifalardan sanaladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi-inglizcha so'z va iboralarning o'zbek yoshlar nutq madaniyatiga qanday shaklda kirib kelayotganini aniqlash, ularning ma'no, shakl va uslubiy xususiyatlarini izohlash, shuningdek bu jarayonning ijobiy va salbiy oqibatlarini baholashdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'zbek tilidagi inglizcha ko'p qo'llaniluvchi til birliklarining ishlatilish chastotasi va semantik yuklamasini aniqlash;
2. Inglizcha so'zlarning ijtimoiy-madaniy motivlari va foydalanilish holatlarini tahlil qilish;
3. Fonetik va morfologik moslashuv mexanizmlarini o'rganish;
4. Ingliz tili ta'sirining o'zbek tilining adabiy norma va til siyosatiga ta'sirini baholash.

Ushbu tadqiqot natijalari o'zbek tilining zamonaviy o'zgarish jarayonlarini yaxshiroq tushunishga, shuningdek til siyosatini shakllantirishda amaliy asos bo'lib xizmat qilishga yordam beradi.

Respondentlarning yosh toifasi



TADQIQOT METODLARI

Ushbu maqolada ingliz tilining o‘zbek yoshlar jargoniga ta’siri empirik kuzatuv, so‘rovnoma, sotsiologik yondashuv, kontent tahlil va tilshunoslik nazariyalariga tayanuvchi interpretatsiya usullari asosida o‘rganildi. Asosiy maqsad inglizcha so‘zlarning o‘zbek yoshlar nutqida qanday shakllarda va kontekstlarda ishlatilishini aniqlash, ularning adabiy tilga mos yoki zid ekanini baholash hamda bu holatning sabablari va oqibatlarini tahlil qilishdan iborat bo‘ldi.

So‘rovnoma usuli yordamida Toshkent shahri va bir necha viloyatlardan 11-35 yosh oralig‘idagi 51 nafar ishtirokchi qamrab olindi. Ishtirokchilarga inglizcha so‘zlardan foydalanish tezligi, sabablari, manbalari va shaxsiy munosabatlari bo‘yicha savollar berildi. So‘rovnomalar onlayn shaklda tarqatildi, natijalar esa “Google Forms” platformasi orqali avtomatik ravishda tizimlashtirildi. Bundan tashqari, ayrim javoblar sifat jihatidan chuqurroq tahlil qilish uchun ochiq savollar asosida tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida yoshlar nutqidagi sleng, inglizcha atamalar va ularning kontekstda ishlatilishi turlari o‘rganilib, ular adabiy til normalari bilan solishtirildi. Maqolada tilshunoslik nazariyalaridan, xususan, G.A. Abdurahmonov, M.T. Irisqulov, Sh. Usmanova, N.M. Mahmudov va E.A. Mamatovlarning fikrlaridan nazariy asos sifatida foydalanildi. Tadqiqot natijalari yoshlar nutqida inglizcha jargon elementlarining keng tarqalayotgani, ularning aksariyati onlayn muloqot orqali shakllanayotgani va adabiy til normalariga zid holatlar ko‘payib borayotganini ko‘rsatdi.

Respondentlarning yosh toifasi

16-20 yoshdagilar – 37.3%. Bu guruh eng katta ulushni tashkil etadi, ya'ni respondentlarning asosiy qismini tashkil etadi.

21-25 yoshdagilar – 26.5%. Ikkinchi yirik guruh.

30 yoshdan yuqorilar – 17.6%.

26-30 yoshdagilar – 15.7%.

11-15 yoshdagilar – 3% atrofida, eng kam sonli guruh.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning katta qismi yoshlar bo'lib, ayniqsa 16-20 yosh oralig'idagi ishtirokchilar yetakchilik qiladi (37.3%). Bu shuni anglatadiki, inglizcha sleng so'zlar aynan shu yosh toifasi vakillari orasida eng keng qo'llaniladi. Keyingi yirik guruh 21-25 yoshdagilar bo'lib, bu ham slengdan faol foydalanilayotgan yoshlarni ko'rsatadi.

NATIJARLAR

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning deyarli barchasi o'z kundalik nutqida kamida bitta inglizcha sleng so'zlardan foydalanadi.

Bu taqsimot inglizcha slengning yoshlar orasidagi keng tarqalganligini, ayniqsa o'rta va yuqori sinf o'quvchilari hamda talaba yoshlar orasida faol qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Bu yoshdagi shaxslar global madaniyat ta'siriga ochiqroq bo'lishi va internet, ijtimoiy tarmoqlardan ko'proq foydalanishi bilan izohlanadi.

Ingliz tilidagi so'zlar eng ko'p o'zlashtiriladigan manbalari

- Internet va ijtimoiy tarmoqlar – 66.7%. Bu eng asosiy manba bo'lib, inglizcha so'zlar va slenglar aynan shu yo'l bilan o'zlashtiriladi. Yoshlar asosan TikTok, Instagram, YouTube kabi platformalarda faol bo'lganlari uchun bu holat tabiiy.

- Do'stlar orqali – 9.8%: sleng va inglizcha iboralar og'zaki muloqot orqali ham keng tarqalmoqda.

- Kino va seriallar – 17.6%: ingliz tili elementlari ko'p hollarda subtitrlar yoki asl audio orqali tomoshabinlarga yetadi.

- Lug'atga asoslangan manbalari– kam ulush (3%): bu yerda darsliklar, lug'atlar yoki o'quv qo'llanmalar nazarda tutilgan.

- Musiqalar va kitoblar – ulushi juda kichik, taxminan 1-2% atrofida.

Natijadan ko'rinib turibdiki, inglizcha so'zlarning asosiy tarqalish kanali bu – **ijtimoiy tarmoqlar va internet**. Bu holat zamonaviy yoshlarning raqamli platformalarga bo'lgan yuqori qiziqishi bilan bog'liq. Kino, serial va do'stlar orqali o'zlashtirish ham muhim o'rin tutadi, ammo an'anaviy manbalar – kitoblar yoki darsliklar – bu borada sezilarli ta'sir ko'rsatmayapti.


So'rovnamada qatnashgan yoshlarning 60.8% bu inglizcha sleng so'zlardan o'zbek tilidagi nutqda foydalanishni ijobiy deb hisoblashini ma'lum qiladi. 19.6%

ga esa foydali yoki zararli ekanligi ahamiyatsiz ekanligi ma'lum bo'ldi. Faqat 19.6% igina bu hodisani zararli deb topdi.

Respondentlar nega kundalik o'z ona tilidagi nutqlarida inglizcha sleng so'zlardan foydalanishlari sabablarini quyidagicha izohladilar:

- O'zbek tilida muqobili bo'lmagani uchun-29,4%
- Inglizcha so'zlar qisqaroq bo'lgani uchun-35,3%
- Zamonaviy ko'rinish uchun-13,7%
- Do'stlarim shunday qilishadi-17,6%
- Boshqa sabab-19,6%

Shuningdek, yoshlar inglizcha so'zlarni ona tilidagi nutqda qo'llaganliklarida ham inglizcha talaffuz normalariga ko'ra talaffuz qilishi ma'lum bo'ldi (90,2%). Sababi respondentlarning barchasi boshlang'ich, o'rta yoki yuqori darajada ingliz tili bilimiga ega ekanliklari bo'lishi mumkin. So'rovda qatnashgan respondentlarning katta qismi ingliz tilini **kamida o'rta darajada (47,1%)** biladi. Bu ularning inglizcha slenglarni tushunishi va kundalik nutqiga qo'shishi uchun



yetarli asos yaratadi. Ayniqsa, **Intermediate** va **Upper-intermediate** darajadagi yoshlar slengni faol o'zlashtirish va uni o'z jargoni sifatida ishlatishda yetakchi rol o'ynaydi. Bu esa ingliz tilining o'zbek yoshlar leksikoniga ta'siri kuchayganligini ko'rsatadi.

Natijalarga ko'ra eng ko'p qo'llaniladigan inglizcha so'zlar

quyidagilardir:

Layk (like), okey (OK), bro (brother), mesej (message), relaks (relax), selfi (selfie), chill, krinj (cringe), OMG (oh my Gosh), repost qilmoq (to repost), sheyr qilmoq (to share), LOL (laughing out loudly). Keyingi o'rinlarni *ASAP, cool, sorry, go go, yes, SOS, shut up, really, I don't know, happy* so'zlari band qildi.

Shuningdek, Instagram ijtimoiy tarmog'ida o'tkazilgan kontent tahlilida 40 ga



yaqin kontent o'rganilganda ularda 60 dan oshiq ingliz tilidagi so'z va iboralar aniqlandi. Ularning 55,9% i original ko'rinishda, 44,1% esa o'zbekcha qo'shimchalar bilan fonetik va morfologik moslashgan holda ko'rishimiz mumkin. Bularga misol qilib quyidagilarni keltiramiz: *“brazerim o'zimni”, “bugun shu trendda”, “chill qililik”, “okey bo'lsa okeyda”, “hozir travel mavsumi”, “meni*

hazbindim tilla”, “*sheyr qivoring*”, “*IELTS*”, “*IT*”, “*kargo*”, “*kreativ*”, “*kredit*”, “*kontent*”.

Hech qaysi til o‘zining sofligini butunlay saqlay olmaydi. Tillarning vaqt o‘tishi bilan o‘zaro ta’sirga kirishi tabiiy jarayondir. Bu jarayon ayniqsa tilning lug‘at tarkibida iz qoldiradi. O‘zbek tili ham boshqa jahon tillari singari lug‘at tarkibidagi o‘zgarishlari quyidagicha kechadi: 1) eski so‘zni yangisi bilan almashtirish; 2) boshqa tillardan so‘z olish (Axmadjonova, 2023, 63). Ayniqsa, ingliz tilining ta’sirida so‘z boyligi yangilanmoqda, yoshlar tomonidan yangi atamalar qabul qilinmoqda yoki mavjud so‘zlar zamonaviy mazmunda qo‘llanilmoqda. Yuqoridagi o‘tkazilgan so‘rovnomaga ushbu fikrning tasdig‘idir.

Sotsiolingvist Allan Bell tomonidan taklif etilgan kommunikativ auditoriyani tabaqalashtirish modeli yoshlar slengining shakllanishi va qo‘llanishini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo‘la oladi. U gapiruvchi shaxs til tanlash jarayonida nafaqat bevosita suhbatdosh – ya’ni “murojaat qilinayotgan shaxs”ni, balki suhbatni eshitayotgan boshqa tinglovchilar – auditorlar, eshitib qoluvchilar va hatto yashirin tinglovchilarni ham hisobga olishini ta’kidlaydi. Shunday qilib, Bell modeli doirasida qaralganda, tilshunoslikdagi akkomodatsiya (moslashuv) va konvergensiya (yaqinlashuv) jarayonlari internet muloqotida slengning emotsional va ekspressiv xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi (1-rasm) (Meyerhoff, 2006, 43).

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ingliz tilidan kirib kelayotgan sleng birliklarining yoshlar nutqida ommalashuvi nafaqat individual til tanlash ehtiyoji, balki kengroq auditoriyaga ijtimoiy, madaniy yoki emotsional signal yuborish vositasi sifatida ham talqin etilishi mumkin. Ayniqsa onlayn muloqotda, masalan, ijtimoiy tarmoqlarda yozilgan fikrlar ko‘plab auditoriyalarga bir vaqtda yetib borishi mumkin. Bu esa yoshlar tomonidan ingliz tilidan o‘zlashtirilgan sleng so‘zlarining tanlanishiga va qo‘llanish uslubiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ingliz tilidagi so‘zlarning o‘zbek yoshlar jargoniga kirib kelishining asosiy lingvistik sabablari deb quyidagilarni topdik:

1. O‘zbek tilidagi lakunalar. Ya’ni yangi texnologiyalar, tushunchalar va hodisalarni ifodalash uchun o‘zbek tilida mos so‘zlarning yetishmasligi. Bunday hollarda ingliz tilidagi so‘zlar tildagi bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda lakuna nima ekanligiga izoh berib ketishni lozim topdik. Ilmiy terminologiyadagi lakuna termini asli fransuz tilidagi bo‘shliq, yoriq ma’nosidagi *lacune* so‘zidan kelib chiqqan. O‘z navbatida fransuz tiliga lotin tilidagi chuqurlik, cho‘kma, teshik, bo‘shliq mazmunidagi lacuna so‘zidan o‘tgan. Bu termin lingvistika bilan bir qatorda botanika, anatomiya, fiziologiya, kemasozlik, matematika, tibbiyot va boshqa sohalarida qo‘llaniladi. Barcha holatlarda u o‘zining

semantikasini saqlaydi. Ya'ni ma'lum bir mazmun bilan to'ldirilgan yoki to'ldirilishi mumkin bo'lgan chegaralangan makon degan umumiy ma'nosini (Savitskaya, 2013, 48). Bu termin lingvomadaniyatshunoslik fanining asosiy tushunchalaridan biridir. Ma'lum bir xalq madaniyatida boshqa madaniyat vakillari tomonidan qabul qilinmaydigan stereotiplar mavjud bo'lib, ularni Y.A. Sarokin va I.Y. Markovinalar lakunalar deb atagan. O'quvchi har doim boshqa madaniyatdan kelgan matnni to'liq tushuna olmaydi, chunki matndagi ba'zi elementlar unga notanish va g'alati tuyulishi mumkin va shuning uchun ham izoh talab qiladi. Bu birliklar, elementlar o'z navbatida matn yozilgan til madaniyatining o'ziga xos milliy va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Lakunalar madaniyatlararo muloqotda tillar va madaniyatlar orasidagi farqlarni ko'rsatib beradigan muhim omil sifatida qaraladi (Usmanova, 2019, 130).

2. Lingvistik tejamkorlik. Ko'pgina ingliz tilidagi so'zlar o'zbek tilidagi ekvivalentlariga qaraganda qisqaroq va talaffuz qilish uchun qulay. Masalan *like* so'zi *yoqtirmoq* yoki *ma'qullamoq* so'zlariga qaraganda ancha qisqa va qulay.

Iqtisodiy tamoyil-barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lgan "eng kam kuch sarflash" g'oyasidir. Ya'ni ortiqcha kuch sarflamasdan maksimal natijaga erishish. Bu nafaqat biologik balki tilshunoslikdagi harakatlarda ham amal qiladi va til rivojlanishining asosida turadi. Zamonaviy tilshunoslikda bu tamoyilni ilk bor Andre Martinet izchil tarzda ta'riflagan va uni fonologiya va sintaksisda qo'llab o'rgangan (Vicentini, 2003, 38). Yoshlar tili, ayniqsa muloqot tezligi yuqori bo'lgan raqamli muhitda, aynan shu tejamkorlik tamoyiliga mos tarzda shakllanadi. Ular murakkab va uzun iboralarni qisqartirish, qisqa, sodda, ammo mazmunan kuchli bo'lgan so'zlarni afzal ko'rishadi. Ingliz tilidan kirib kelayotgan "ok", "bro", "lol", "FAQ" kabi qisqartmalar yoki qisqa so'zlar aynan ushbu ehtiyoj — ortiqcha kuch sarflamasdan samarali muloqot qilish — natijasida ommalashmoqda. Bu hodisa, bir tomondan, muloqot samaradorligini oshirsa, boshqa tomondan, ona tilidagi ifoda vositalarining chetlab o'tilishiga olib keladi. O'zbek tilining fonetik va grammatik tuzilmasiga mos kelmaydigan, ammo tez aytiladigan va ko'p ishlatiladigan inglizcha birliklar yoshlar orasida muloqotning tejamkor, lekin begona unsurlarga boy shaklini shakllantirmoqda.

3. Semantik differensiya. Semantik differensiya inson ongidagi ma'no ifodasini aniqlash va baholashga xizmat qiluvchi psixologik-eksperimental metoddir. Bu metod orqaligina subyektiv baholashlar masalan yaxshi-yomon, kuchli-kuchsiz, faol-passiv kabi qutblangan sifatlarga asoslangan semantik makon ichida ifodalanadi. Ushbu metod nafaqat psixologik balki lingvistik tadqiqotlar uchun ham ahamiyatlidir. Semantik differensiya psixolingvistik vositadir, ya'ni u til foydalanuvchilarining til birliklariga bo'lgan ichki, konnotativ munosabatini

o'ldash imkonini beradi (Osgood et al.,1957, 275). Aynan mana shu semantik differensiya tamoyili orqali yoshlar inglizcha so'z va iboralarga o'z ona tilidagi ekvivalentlaridan ko'ra ko'proq emotsional, ijtimoiy va psixologik yaqinlik hissini bog'laydilar. Bu so'zlar faqatgina ma'noni yetkazish emas, balki subyektiv munosabatni, ichki kayfiyatni yoki ijtimoiy pozitsiyani ham ifodalash imkonini beradi. Yoshlar o'z muloqotlarida ma'lum bir nuqtayi nazarni nozik semantik farqlash orqali bildirishni istaganlarida, inglizcha jargonlarni tanlaydi. Bu esa, til birligining faqat leksik emas, balki konnotativ (emotsional-yuklama) darajadagi ustunligini ko'rsatadi. Shunday qilib, inglizcha so'zlarning o'zbek yoshlar jargoniga kirib kelishida nafaqat tejamkorlik, balki ularning baholovchanligi, zamonaviyligi va emotsional aniqligi ham muhim omilga aylanadi.

Ijtimoiy-madaniy sabablari deb esa quyidagilari belgiladik:

1. Global madaniyatga integratsiyalashuv. Ingliz tilidagi so'zlarni qo'llash orqali yoshlar o'zlarining global madaniyatga tegishlilikini namoyon qilishadi. Globallashuv-jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohada o'zaro yaqinlashuvi, birlashuvi; voqea-hodisalarning bir mamlakat doirasidan chiqib, umuminsoniy miqyosga ega bo'lishidir (O'zbek tilining izohli lug'ati-G, 507). Ushbu jarayon natijasida ingliz tili nafaqat xalqaro aloqaning, balki zamonaviylik, muvaffaqiyat va innovatsiyaning ramziga aylandi. Yoshlar orasida ingliz tilini bilish yoki undan foydalanish ijtimoiy mavqening, zamonaviy tafakkur va erkin muloqotning belgisi sifatida qabul qilinmoqda. Globalizatsiya orqali tarqalgan internet-kontent, kino, musiqa va texnologiya mahsulotlari o'zbek tiliga inglizcha atamalarni jadal sur'atda olib kirib, yoshlar tilida yangi, aralash va ko'p hollarda kod-almashuvli muloqot shakllarini vujudga keltirmoqda
2. Zamonaviylik. Ingliz tildagi so'zlarni qo'llash zamonaviylikning belgisi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Tadqiqot davomida ingliz tilidagi so'zlarning o'zbek tiliga moslashuvi quyidagi usullarda amalga oshishi aniqlandi:

1. Fonetik moslashuv. Ingliz tilidagi so'zlar o'zbek tili fonetikasiga moslashtiriladi

Ingliz tilidan o'zbek tiliga kirib kelayotgan jargon va baynalmilal so'zlarning aksariyati yoshlar og'zaki nutqida ko'pincha asl talaffuzga yaqin tarzda ishlatiladi. Masalan, "blogger", "comment", "like", "stories" kabi so'zlar ingliz tilidagi shakliga yaqin talaffuz etiladi. Bu holat "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida qayd etilganidek, o'zlashgan baynalmilal so'zlarning og'zaki adabiy nutqda asliga yaqin holda qo'llanilishi bilan bog'liq: masalan, "fabrika" so'zining "pabrika" emas, balki asl ko'rinishida talaffuz qilinishi kabi (Sayfullayeva et al., 2009, 74). Xuddi

shuningdek, inglizcha soʻzlar ham oʻzbek yoshlarining jargonida minimal fonetik oʻzgarish bilan tilga singmoqda, bu esa fonetik moslashuvning zamonaviy koʻrinishidir.

2. Morfologik moslashuv. Ingliz tilidagi soʻzlarga oʻzbek tilining grammatik qoʻshimchalari qoʻshiladi. Misol uchun “trendda”. “Okey boʻlsa okeyda”
3. Semantik moslashuv

Ingliz tilidagi soʻzlarning oʻzbek yoshlar jargoniga kirib kelishi oʻzbek tili va madaniyatiga maʼlum darajada taʼsir koʻrsatadi. Bu taʼsir ikki tomonlama baholanishi mumkin. Ijobiy tomonlari deb tilning boyishi, uning yangi tushunchalar bilan toʻldirilishini shuningdek global madaniyat bilan integratsiyalashuvni tushunsak, salbiy tomonlariga til normalarning buzilishi va milliy til hamda milliy madaniyat oʻziga xosliginin yoʻqolish xavfini keltirish mumkin.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, ingliz tilidagi soʻzlar oʻzbek yoshlar jargoniga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Bu jarayon global tendensiyalarga mos keladi hamda bir qator lingvistik va ijtimoiy-madaniy sabablar bilan izohlanadi.

Filologiya fanlari nomzodi Dilorom Babaxonova til normasi tushunchasiga quyidagi izohni keltiradi: “har bir tilda maqbul-nomaqbul, mavjud-nomavjud, namunali va namunali boʻlmagan imkoniyatlar mavjuddir. Tildan foydalanilar ekan, ushbu til imkoniyatlari oʻlchovlari asosida yondashish talab etiladi. Tilning ham yozma ham ogʻzaki shakllari va nutq uslublari oʻsha imkoniyat va ehtiyojlari doirasida roʻyobga chiqar ekan, ushbu hodisa tilshunoslikda til normasi termini ostida yuritiladi” (Babaxonova, 2024, 15). Oʻzbek tili soʻzlashuvchilari oʻzlarining oʻzbek tilidagi nutqlarida tilning oʻz imkoniyatlari oʻlchovlari asosida yondashmasdan, maʼlum bir maʼno yoki hissiyotni ifodalash maqsadida chetki soʻzlardan foydalanar ekanlar, bunda ayni til normasi buzilishi hodisasi sodir boʻlmoqda deb hisoblaymiz. Nutqdagi inglizcha soʻzlar hamisha ham neologizmlar maqomida boʻlmasligi mumkin. Neologizm-(yunoncha *neos*-yangi+*logos*-soʻz) yangi narsa, tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan, hali odatdagi lugʻaviy birlikka aylanib ketmagan soʻz yoki iboralardir. Mas-*fazogir*-avvaliga neologizm boʻlgan bu soʻz, hozirda odatdagi soʻzdir (Hojiyev, 2002, 69). Yoshlar nutqidagi “*kontent*”, “like bosmoq” internet jargonlari ayni qoidaga mos tushsa-da, “*bro*”, „*sorry*” soʻzlari neologizm emas, balki varvarizm maqomidadir.

Bilamizki, tilshunoslikda neologizmlar bu yangi ibora va soʻzlar shaklidagi elementlardir. Ular yangi texnologik, ijtimoiy, madaniy oʻzgarishlar natijasida paydo boʻladi va til tizimining rivojlanishiga katta taʼsir qiladi (Sharipova, 2024, 149). Yaʼni neologizmlar til rivojlanishi uchun foydali ekan, unda nega ingliz tilidagi oʻzlashmagan soʻzlarni nutqda haddan ziyod koʻp qoʻllanishi til normasining

buzilishiga sabab bo'lishi mumkin? Sababi tadqiqot natijasiga ko'ra yoshlar nutqidagi eng ko'p qo'llanilgan deb topilgan inglizcha so'z va iboralarning aksari o'zbek tili neologizmlarning ikki turiga ham to'g'ri kelmaydi. Tilshunos M.T. Irisqulov bu ikki turli neologizmlarni quyidagicha ta'riflaydi: "neologizmlar semantik va leksik turlarga bo'linadi. Tildagi mavjud so'zlarning yangi ma'noda ishlatilishi-semantik neologizmlar hisoblansa, tildagi mavjud so'z va morfemalarning qo'shilishi asosida yangi tushunchani ifodalash, boshqa tildan so'z o'zlashtirish va tillarning leksik-grammatik vositalari yordamida paydo bo'ladigan yangi so'zlar-leksik neologizmlardir (Irisqulov, 2009, 119).

Filologiya fanlari doktori Muyassar Axmedova o'tkazgan Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yoshlar nutqida uchrayotgan inglizcha o'zlashma so'zlarning aksariyati sleng, argo yoki jargon xususiyatiga ega bo'lib, ularning kommunikativ funksiyalari bir-biridan farq qiladi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, sleng odatda ekspressivlik va emotsional ifodaning vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu holat, ayniqsa, yoshlar orasida keng tarqalgan inglizcha sleng so'zlarning (masalan, *bro, flex, chill, cringe* kabi) qo'llanishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday so'zlar muloqotni samimiyroq, zamonaviy va o'zaro yaqinlashtiruvchi qiladi. Shuningdek, ayrim kasbiy yoki muayyan guruhlariga xos jargon so'zlar ham yoshlar jargonida uchraydi, ular ko'proq oshkoralik va aniqlik vazifasini bajaradi, biroq bunday atamalarda emotsional yuklama kamroq bo'ladi. Argo so'zlarga esa, asosan, yashirin yoki norasmiy kontekstlarda duch kelinadi; ularning funksiyasi ko'proq kriptolallik (yashirish) yoki konspirativlik bilan bog'liq. Tadqiqot ishtirokchilarining ayrimlari ushbu turdagi so'zlarni "faqat o'z doirasida tushuniladigan" yoki "kattalardan yashirish uchun" ishlatishlarini ta'kidladilar (Axmedova, 2022, 17). Shu tarzda, sleng, argo va jargon kabi birliklarning farqlanishi nafaqat ularning shakliy yoki semantik jihatlari bilan, balki kommunikativ vazifalari orqali ham belgilanadi. Muyassar Axmedovaning tadqiqotidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, inglizcha o'zlashma so'zlarning yoshlar nutqidagi qo'llanilishi bir nechta ijtimoiy-psixologik motivlar bilan izohlanadi. Tadqiqot ishtirokchilarining fikrlariga asoslanib aytish mumkinki, bu so'zlar yordamida nafaqat zamonaviylik va guruhga daxldorlik ifoda etiladi, balki til orqali o'zaro yaqinlik, emotsional holat yoki hatto ijtimoiy chegaralar ham ifodalanadi.

MUNOZARA

Tillarning nominatsiya tizimi hech qachon bir-biriga mos kelmaydi. Til sistemalarining ayrim qismlarida har bir konkret til lug'at boyligining o'ziga xosligini tashkil etuvchi belgilar namoyon bo'ladi. Ekzotizmlar ham ana shunday milliy o'ziga xos nominatsiyalar sirasiga kiradi. Xalqlar hayotining turli hodisalariga

taaluqli ekzotizmlar ko‘pincha moddiy madaniyatni tavsiflaydi va kamdan-kam hollarda mavhum tushunchalarni anglatadi (Voronkova, 2006, 77-78). Global kommunikatsiya vositalarining kengayishi, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali madaniy axborot oqimining kuchayishi natijasida ingliz tilidan kirib kelgan ekzotizmlar yoshlar tilida faol qo‘llanila boshladi. Bu jarayon, avvalo, texnologiya, moda, ovqatlanish, ko‘ngilochar sohalarga oid hodisalarni ifodalovchi atamalarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Masalan, “burger”, “challenge”, “blogger”, “like”, “meme” kabi so‘zlar kundalik muloqotda o‘zbekcha muqobillarisiz yoki ular bilan yonma-yon ishlatilmoqda. Bu turdagi leksik birliklar, bir tomondan, tilning nominativ imkoniyatlarini boyitayotgandek ko‘rinsa-da, boshqa tomondan, o‘zbek tilining ichki sistemaviy tuzilmasiga begona unsurlarni olib kirmoqda. Ayniqsa, ularning semantik jihatdan to‘liq o‘zlashtirilmagan, asl madaniy kontekstdan uzilgan holda ishlatilishi lingvistik degradatsiyaga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, bu jarayonni faqat tilga yangi nomlar kirib kelishi sifatida emas, balki yoshlar tili va tafakkurining transformatsiyasi sifatida ham ko‘rish lozim.

Jargonlar odatda tildagi so‘zlarning tovush tomonini o‘zgarishi, buzib qo‘llash, boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish va tildagi mavjud so‘zlarga ma’no berish yo‘li bilan hosil qilinadi. Yoshlar jargoni dunyoning eng tez va eng keng rivojlangan tili hisoblanadi (Rahimova, 2023, 429). Zamonamiz yoshlar jargoni, ayniqsa ingliz tilining ta’siri ostida shakllanmoqda. Internet, kino, musiqiy kontent va ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan inglizcha so‘z va iboralar nafaqat lug‘at boyligini, balki ifoda uslubi va muloqot madaniyatini ham o‘zgartirmoqda.

Hozirgi yoshlar slengi asosan onlayn muloqot orqali rivojlanmoqda va u nafaqat virtual makondan, balki televideniye, radio va bosma ommaviy axborot vositalaridan ham kirib kelmoqda. Buning sabablari — kompyuter texnologiyalarining keng tarqalishi, tilda kompyuter so‘zlarining yetarlicha shakllanmaganligi, madaniyatning globallasuvi va xorijiy madaniyat mahsulotlarining ommalashuvi hamda ijtimoiy tarmoqlarda tez va aniq fikr almashish zarurati. Internet slengining asosiy xususiyati emotsionallik va ifodalilik bo‘lib, u yoshlar nutqini boyitadi va tez o‘zgaradi. Sleng so‘zlari qisqa, ifodali va ko‘p ma’noli bo‘lib, odatiy gaplarni oson va tez almashtirish imkonini beradi (Syan, 2016, 20). Biroq bu holatga befarqlik bilan qarash yaramaydi. Inglizcha sleng elementlari ko‘pincha o‘zbek tili me’yorlariga moslashtirilmagan qo‘llanmoqda. Bu esa asta-sekin adabiy til normalarining buzilishiga va o‘zbek tilining qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin. Slengdan to‘g‘ri foydalanilmasa, u milliy tilda beqarorlik keltirib chiqaradi. Shuning uchun bu jarayonni nazorat qilish, slengni me’yorlashtirish va til madaniyatini yoshlar ongiga singdirish zarur.

Prizikning fikriga ko‘ra, ingliz tili ijtimoiy-lingvistik jihatdan “mahalliyashtirilgan xorijiy til” maqomini egallagan. Bu shuni anglatadiki ingliz tili hozirgacha dunyo bo‘ylab, ko‘plab tillar va madaniyatlarning ajralmas qismiga aylangan yagona til bo‘lib, shu bilan uning xorijiy til sifatidagi ayrim xususiyatlari kamaygan. Ushbu jarayon maxsus sohalar terminologiyasida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi, bunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ko‘plab qarz so‘zlar uchraydi. Bu so‘zlar turli tarjima usullari orqali tarjima qilinadi. Boshqacha qilib aytganda ingliz tili yordamchi til sifatida xizmat qiladi. Chunki u integratsiyaga kirishgan til egasining muloqot ehtiyojlarini qondirish va mavjud leksik va boshqa xil til bo‘shliqlarini to‘ldiradi (Polcz et al., 2023, 240-241). Aynan shu mahalliyashtirish jarayoni yoshlar tilida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Inglizcha atamalar endilikda “xorijiy” emas, balki o‘zlashgan, kundalik muloqotning tabiiy qismiga aylangan. “update qilmoq”, “save qilish”, “deadline”, “target”, “cancel qilish” kabi birikmalar yordamchi til sifatida ingliz tilining faol ishlatilayotganini ko‘rsatadi. Bu nafaqat terminologik sohalarda, balki norasmiy muloqotda ham kuzatiladi. Shu jihatdan inglizcha birliklar o‘zbek yoshlarining so‘z boyligini to‘ldiruvchi vosita sifatida xizmat qilmoqda va yangi til holatini shakllantirishga hissa qo‘shmoqda.

Ish joylarida standart til – ayniqsa standart ingliz tili – ustun mavqega ega bo‘lib, u “aniqlik” va “professionallik” niqobi ostida targ‘ib qilinadi. Global bozorda ingliz tilini bilish muvaffaqiyat kaliti sifatida ko‘riladi. Xalqaro muhitdagi ish joylarida, masalan, Daniyadagi farmatsevtika kompaniyasida, ishchilardan ingliz tilida ishlash talab qilinadi, hatto ularning til bilimi yetarli bo‘lmasa ham. Bu esa ularni muhim ma‘lumotlardan uzib qo‘yadi va o‘zlarini chetda his qilishlariga olib keladi. Umuman olganda, til mafkuralari (standart til mafkurasi) ish joylarida adolatsizlikni kuchaytiradi, va aksentli nutq ijtimoiy harakatchanlik va teng imkoniyatlarga to‘sqinlik qiladi (Craft et al., 2020, 399-400). Shu kabi xalqaro kontekstda kuzatilayotgan til mafkuralari va aksentga bo‘lgan munosabatlar, aslida, mahalliy – xususan, o‘zbek yoshlarining tilda ifodalanish uslublariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Ingliz tilining “standart” va “professional” til sifatida targ‘ib qilinishi, o‘zbek yoshlarining inglizcha atamalarni o‘z jargoni tarkibiga qo‘shishiga, ba’zan esa, ularni ijtimoiy maqom yoki zamonaviylik belgisi sifatida ko‘rishlariga sabab bo‘layotgan omillardan biri bo‘lishi mumkin. Bu jarayon yoshlar orasida inglizcha so‘zlarning ko‘payib borishi bilan birga, o‘z ona tilidagi ba’zi ifodalar chekinib borayotganini ham ko‘rsatadi. Demak, global miqyosdagi til mafkuralari lokal nutq amaliyotlariga bevosita ta’sir o‘tkazmoqda – aynan mana shu bog‘liqlik ushbu tadqiqot doirasida tahlil qilinadi.

Yoshlar tomonidan inglizcha so‘zlarning qo‘llanilishi ko‘pincha nafaqat kommunikativ maqsad, balki ijtimoiy o‘zini namoyon qilish vositasi sifatida ham

ishlatiladi. Bunday holatlar boshqa ko‘p tilli jamiyatlarda ham uchraydi. Masalan Katherine Hoi Ying Chen tomonidan Gong Kongdagi ikki xil kod-aralashuv uslubi haqida olib borilgan tadqiqotda shuni ko‘rish mumkin. Mahalliy so‘zlovchilar doimiy ravishda mahalliy nutq uslubini “sof” , “oddiy” va “odatiy”til uslubi bilan bog‘laydilar, holbuki, xorijdan qaytgan muhojirlarning nutq uslubi esa odatda salbiy qarshi olinadi. U toifaga mansub bo‘lgan so‘zlovchilar —“o‘zini ko‘z-ko‘z qiluvchilar”, “o‘z ildizlaridan uzoqlashganlar”, “tashqi tomondan osiyolik, ammo ichki jihatdan g‘arbona bo‘lganlar”, hattoki “g‘arbparast” deb baholanadi (Stell&Yakpo, 2015, 179). Bu holat shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilining nutqqa aralashirilishi har doim ham ijobiy baholanmaydi. Ba’zi hollarda u “sun’iy”, “ko‘z-ko‘z qiluvchi”, yoki “g‘arbga o‘xshatmoqchi bo‘lgan” kabi salbiy konnotatsiyalarni uyg‘otadi. O‘zbek jamiyatida ham ayrim yoshlarning nutqida inglizcha so‘zlarni qo‘llashi ijtimoiy tanqidga sabab bo‘lishi, ba’zida “zamonaviy”, ba’zida esa “sun’iy”, va hatto “g‘urursizlik” deb baholanishi mumkin. Bu til o‘zgarishlari shunchaki leksik hodisa emas, balki ijtimoiy o‘zini ifodalash strategiyasidir.

Xiaodi Zhou ning fikriga ko‘ra Til insonning ichki va tashqi olami o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Til – bu so‘zlovchining hissiy-baholovchi munosabatini ifodalovchi boy tizim bo‘lib, leksik, morfologik va sintaktik vositalarga ega. Yoshlar jargonining shakllanishida ham aynan shu hodisa kuzatiladi: u faqat kommunikativ vosita emas, balki shaxsning emotsional holatini, jamiyatga munosabatini bildiruvchi til shaklidir. Har bir tirik so‘z o‘z obyekt bilan yagona, qat’iy munosabatda bo‘lmaydi – so‘z bilan uning ma’nosi, so‘zlovchi bilan uning til tanlovi o‘rtasida boshqa so‘zlar, kontekstlar va madaniy tasavvurlar shakllantirgan “elastik muhit” mavjud. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ingliz tilidan kirib kelgan so‘zlar yoshlar o‘rtasida nafaqat kommunikatsiyani soddalashtiradi, balki ularning ijtimoiy identiteti, madaniy qarashlari va dunyoqarashi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p qavatli ma’no qatlamlarini ham aks ettiradi. Har bir jargon so‘zda boshqa madaniyatlarning “nafasi” seziladi (Zhou, 2023, 508). Ba’zan ular o‘zbek madaniy kontekstiga zid bo‘lsa ham, ular orqali yoshlar global madaniyat bilan dialogga kirishadilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilining keng tarqalganligi va uning xalqaro aloqa vositasi sifatida shakllanishi o‘zbek yoshlarining so‘zlashuv uslubiga ham bevosita ta’sir qilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat va texnologik innovatsiyalar orqali inglizcha so‘zlar va iboralar jargon tarzida tezda o‘zlashtirilmoqda. Biroq David Crystal ta’kidlaganidek, bunday global tilning kuchayishi bir qator xavflarni ham yuzaga keltirishi ehtimoldan yiroq emas. Ya’ni ehtimol, global til paydo bo‘lishi natijasida boshqa tillarning obro‘sizlanishi va ularga past nazar bilan qaralish holatlari kuchayishi, faqat global tilni biladigan

sinf shakllanishi mumkin. Balki kam sonli dominant til mavjudligi odamlarni boshqa tillarni o‘rganishga dangasa qilib qo‘yar yoki ularning bu boradagi imkoniyatlarini kamaytirar. Ehtimol, global til kichik tillarning yo‘q bo‘lib ketishini tezlashtirar yoki – eng katta xavf – boshqa tillarni butunlay keraksizga aylantirar” (Crystal, 2003, 14-15). Ushbu fikrni o‘zbek tilidagi holatga tatbiq etar ekanmiz, shuni aytish mumkinki, inglizcha jargonlarning haddan tashqari ko‘p ishlatilishi, ayniqsa rasmiy bo‘lmagan nutqda, o‘zbek tilining asosiy lug‘at boyligi va ifoda vositalarini siqib chiqarish xavfini tug‘diradi. Crystal keltirganidek, bu holat global til egalari va unga bo‘ysunuvchi til sohiblari o‘rtasida “tilning ijtimoiy tabaqalanish”ni keltirib chiqarishi mumkin. Tadqiqot ishtirokchilari orasida ham inglizcha atamalarning ishlatilishini zamonaviylik va bilimlilik belgisi sifatida qabul qilish holatlari kuzatildi, bu esa o‘z navbatida ona tiliga bo‘lgan qiziqishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, ingliz tilining imkoniyatlaridan foydalanish bilan bir qatorda, o‘zbek tilini himoya qilish, ayniqsa yoshlar orasida, muhim masalaga aylanmoqda. Muhokama qilinayotgan holatlar ona tilining saqlanishi va yosh avlodning til madaniyatini yo‘qotmasligini ta‘minlash zaruratini yana bir bor ko‘rsatmoqda.

Jahonda bo‘lgani singari o‘zbek tilshunosligida ham adabiy til normasi va uni sof saqlash muammolari atroflicha o‘rganilgan va o‘rganilayotgan sohadir. Jumladan G‘.A. Abdurahmonovning quyidagi mulohazasi fikrimiz dalili: “Tilshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biri normadan tashqari, xato deb tushuniladigan til faktlarini kolleksiya qilish emas, balki ularni sistemalashtirish, sababni aniqlash, tilda qo‘llanilayotgan ammo normallashtirilmagan hodisalarga adabiy til normalariga zid bo‘lgan anormal hodisalardan farqlab borishdan iboratdir” (Begmatov&Mamatov, 1997, 58-59). G‘.A. Abdurahmonovning til normalarini aniqlash va normadan chet hodisalarni tizimlashtirishga doir mulohazalari, aslida, bugungi o‘zbek jamiyatidagi til o‘zgarishlari jarayoniga ilmiy yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Biroq hozirgi tendensiyalar shuni ko‘rsatmoqdaki, ayniqsa yoshlar orasida inglizcha so‘zlarning nazoratsiz va me‘yoriy tahlilsiz qo‘llanilishi adabiy til me‘yorlariga befarqlik holatini yuzaga keltirmoqda. Bu holat bir qarashda zamonaviylik, global madaniyatga uyg‘unlashuv kabi ijobiy jihatlar bilan izohlanishi mumkin bo‘lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda o‘zbek tilining qadrsizlanishi, milliy tilning ijtimoiy nufuzi pasayishi va hatto ayrim sohalarda chekinib borishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi ehtimoldan holi emas. Chunki til nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy o‘zlik, milliy xotira va tafakkur shaklidir. Agar yoshlar orasida adabiy tilga bo‘lgan talab susaysa, bu nafaqat og‘zaki, balki yozma nutqda ham rasmiy til me‘yorlarining buzilishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, til me‘yorlarini belgilab beruvchi institutlarning obro‘sig va til

siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, tilshunoslar va pedagoglar oldida turgan asosiy vazifa — bu hodisalarni inkor etmasdan, balki ularni chuqur tahlil qilish, tilga kirib kelayotgan yangi birliklar bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligini aniqlab borish, va eng muhimi — yoshlar ongida o'zbek adabiy tilining qadr-qimmatini saqlab qolish muhimligini tushuntirishdan iboratdir.

Yaponiyada 2000-yilda Milliy til kengashi Xalqaro jamiyatda javob beruvchi yapon tilining roli nomli hisobotni e'lon qildi. Unda yapon tiliga xorijiy so'zlarni ko'plab kirib kelishi ijtimoiy muammo sifatida ko'rsatilgan. Hisobotda davlat idoralari va ommaviy axborot vositalari tomonidan qo'llanilayotgan o'zlashma so'zlarning xalqqa tushinarsiz bo'layotganlarini yaponcha ekvivalentlari bilan almashtirish tavsiya etilgan. Bundan tashqari, 2002-yilda o'sha paytdagi Bosh vazir Koizumi siyosiy nutqlarda o'zlashtirilgan so'zlar o'rniga sof yapon tilidan foydalanish zarurligini ta'kidladi. Shu qaror ijrosi 2002-2006 yillarda amalga oshirilgan (Nambu, 2025, 2). Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, tilga begona so'zlarning nazoratsiz kirib kelishi nafaqat madaniy, balki ijtimoiy muammo sifatida ham baholanadi va davlat darajasida tartibga solinadi. O'zbekiston sharoitida ham yoshlar orasida keng tarqalgan inglizcha so'zlarning ortiqcha ishlatilishini e'tiborsiz qoldirmaslik lozim. Xususan, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va ta'lim muassasalarida o'zbek tilining me'yoriy va ifodali imkoniyatlarini keng targ'ib qilish zarur. Shuningdek, inglizcha atamalarning o'rniga o'zbekcha muqobillarni ishlab chiqish va ularni ommalashtirish, maktab va universitetlarda til madaniyatini targ'ib qiluvchi maxsus dasturlarni joriy etish samarali bo'ladi. Bu jarayonga tilshunoslar, pedagoglar va axborot vositalari birgalikda jalb qilinishi kerak. Aks holda, yosh avlod tilida adabiy norma va milliy tilga hurmat tobora susayib boradi.

Hozirgi kunda dunyodagi 193 davlatdan 86 tasida ko'p tillilik siyosati yuritiladi. Ulardan aksariyatida bir nechta til rasmiy maqomga ega. Ba'zi davlatlarda (masalan, Rossiya, Shveysariya, JAR) rasmiy tillar soni uchdan ortiq. Yevropada ham monoetnik davlatlar orasida rasmiy ko'p tillilik keng tarqalgan. Ko'p tillilik ikki shaklda amalga oshiriladi: davlat miqyosida va mintaqaviy ko'lamda. Aksariyat ikki tilli davlatlar unitar tuzilmaga ega, federativ davlatlarda esa bu holat kam uchraydi. Til – davlat ramzi bo'lishi mumkin, ammo bu davlatchilik mavjudligini belgilovchi yagona mezon emas. Dunyoda o'z milliy tili bo'lmas-da, barqaror davlatlar mavjud (masalan, AQSh, Avstriya) (Akbarov, 2019, internet nashr). Dunyo davlatlarining aksariyatida ko'p tillilik siyosati yuritiladi, ammo bu holat, odatda, til me'yorlari va davlat ramzlari asosida qat'iy tartibga solinadi. O'zbekistonda esa bunday siyosat mavjud emasligiga qaramay, ingliz tilining

yoshlar nutqiga ta'siri ortib bormoqda. Bu vaziyat til siyosatiga e'tibor qaratish zarurligini yana bir bor ko'rsatadi.

Yoshlar orasida ingliz tilining keng tarqalishi til o'zgarishi jarayonining tabiiy bosqichi bo'lishi mumkin, biroq bu jarayon davlat tili siyosatiga zid bo'lmasligi lozim. 2020-2030-yillarda O'zbek tilini rivojlantirish konsepsiyasida belgilanganidek, o'zbek tilining zamonaviy texnologiyalarga moslashuvi, nutq madaniyatining yuksalishi va davlat tilining nufuzini oshirish bo'yicha choratadbirlar kuchaytirilishi zarur (O'zRes PF-5850, 2019). Shuningdek, ingliz tilining o'zbek tiliga ijobiy, ammo nazorat ostidagi integratsiyasi til taraqqiyoti uchun foydali bo'lishi mumkin. Yoshlar nutqida ortiqcha inglizcha so'zlar qo'llanilishini kamaytirish va o'zbek adabiy tilining nufuzini oshirish uchun ta'lim tizimida til madaniyati bo'yicha alohida mashg'ulotlar, seminarlar va ommaviy loyihalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu orqali nafaqat tildagi ifoda imkoniyatlari kengayadi, balki yoshlar ongida milliy tilga hurmat hissi mustahkamlanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra ingliz tilidagi so'zlar zamonaviy o'zbek yoshlari jargonida muhim o'rin egallamoqda. Bu jarayon asosan globallashtirish, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ingliz tilining xalqaro miqyosda nufuzining ortishi bilan bog'liq. Ingliz tilidagi so'zlar o'zbek yoshlari nutqida bir qator lingvistik va ijtimoiy-madaniy sabablarga ko'ra qo'llaniladi. O'zlashma so'zlar o'zbek tiliga fonetik, morfologik va semantik jihatdan moslashib, til tizimiga integratsiyalashmoqda. Bu jarayon o'zbek tili rivojlanishining tabiiy qismi bo'lsada, milliy til va madaniy o'ziga xoslikni saqlab qolish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Kelajakda o'zbek tilidagi inglizcha so'zlarning integratsiyasi jarayonini kuzatib borish va bu jarayonni to'g'ridan-to'g'ri boshqarish orqali o'zbek tilining o'ziga xosligini saqlab qolish muhim vazifadir. Bu borada til siyosati sohasida qo'shimcha tadqiqotlar va amaliy choralar talab etilmoqda. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidan kirib kelgan jargon o'zbek tilining boyligini kamaytirishdan ko'ra, uni boyituvchi vosita sifatida ham qabul qilinmoqda. Biroq tilni asrash va rivojlantirish uchun yoshlarni ona tilining to'g'ri va to'liq ishlatilishiga ham o'rgatish muhimdir. Shunday qilib, til va madaniyat muhofazasi hamda zamonaviylikni uyg'unlashtirish orqali o'zbek tilining rivojlanishiga hissa qo'shish mumkin. Umuman olganda, ingliz tilining o'zbek yoshlar jargoniga ta'siri ijobiy va salbiy jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab jarayon bo'lib, tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan yanada chuqurroq tadqiqotlarni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-239-sonli qarori (2024-yil 27-iyun) "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida": qaror. – URL: <https://lex.uz/docs/-6986619>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5850-sonli Farmoni (2019-yil 21-oktyabr) "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida": farmon. – URL: <https://lex.uz/docs/-4561730>
3. Davletova M. N. Z va Alfa avlodlarning ijtimoiy davlatdagi intellektual salohiyati va imkoniyatlari // Yangi O'zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari. – 2024. – May. – B. 153.
4. Sharipova S. A. Zamonaviy leksikografiyada neologizmlar: tushunchalar va yondashuvlar // Ilm-fan yangiliklari konferensiyasi. – Andijon, 2024. – B. 149. – URL: <https://worldlyjournals.com/index.php/ztdvq/article/view/7271/11657>).
5. Rahimova Z. Sh. O'zbek tilida jargon va unga yondosh hodisalar // Journal of Universal Science Research. – 2023. – B. 429. – URL: <https://zenodo.org/records/7662303>
6. Axmadjonova M. O. Semantic transformation of loanwords from English in the Uzbek language: an in-depth analyses // Central Asian Journal of Education. – 2023. – P. 63.
7. Zhou X. Language and the mind: how language shapes our thinking // Journal of World Languages. – 2023. – Vol. 9, No. 3. – P. 508.
8. Polcz K., Hamszovszki S., Huszár E., Jámbor E., Szigetváry N., Válóczy M. Translation procedures in secondary term formation across languages in online glossaries: Universal or language-specific? // Across Languages and Cultures. – 2023. – Vol. 24, No. 2. – P. 240–241.
9. Craft J., Wright K. E., Weessler R. E., Queen R. Language and discrimination: Generating meaning, perceiving identities and discriminating outcomes // Annual Review of Linguistics. – 2020. – P. 399–400.
10. Nambu S. Reflection on Japan's language policy for English loanwords // English Today. – P. 1–10. –2.
11. Rianto S. The Impact of Social Media on Language Use Among Teenagers // Focus Journal Language Review. – 2024. – December. – P. 36.
12. Mansurova D. Sh. Sotsialnaya aktivnost molodyoji Uzbekistana v tsifrovix media // Kognitivnye nauki v informatsionnom obshchestve. – 2024. – T. 4, № 2. – S. 7–8.

13. Voronkova I. S. O ponyatiyakh ekzotizmy i varvarizmy // Vestnik VGU. Seriya: Lingvistika i mezhkul'turnaya kommunikatsiya. – 2006. – № 2. – S. 77–78.
14. Savitskaya E. V. Tolkovanie yazykovoy lakuny v lingvisticheskoy literature // Samarskiy nauchnyy vestnik. – 2013. – № 2. – S. 48.
15. Irisqulov M. T. Tilshunoslikka kirish: ilmiy-uslubiy nashr. – 2009. – B. 118–119/256.
16. Babaxanova D. A. O'zbek tili uslubiyati: o'quv-uslubiy majmua materiallari. – Namangan, 2024. – B. 15/ 166.
17. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. – Toshkent: Navro'z, 1997. – B. 58–59/ 137.
18. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya: darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2019. – B. 130/ 245.
19. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 74/ 414.
20. Vicentini A. The Economy Principle in Language // Mots Palabras Words. – 2003. – No. 3. – P. 38.
21. Osgood C. E., Suci G. J., Tannenbaum P. H. The Measurement of Meaning. – Urbana: University of Illinois Press, 1957. – P. 275.
22. Stell G., Yakpo K. Code-switching between structural and sociolinguistic perspectives. – 2015. – Vol. 43. – P. 179.
23. Crystal D. English as a Global Language. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – P. 15.
24. Meyerhoff M. Introducing Sociolinguistics. – USA: Routledge, 2006. – P. 43/ 404.
25. Quldashev N. A. Ekolingvistika: o'zbek tilida til va nutq sofligining lingvokulturologik tadqiqi: PhD diss. – Farg'ona, 2021. – B. 20/ 142.
26. Axmedova M. X. O'zbek tili jargon leksikasining psixolingvistik aspektlari: avtoref. DSc diss. – 2022. – B. 17/ 176.
27. Syan Ch. Funktsional'no-semanticheskie osobennosti molodëzhnogo slenga (na materiale internet-forumov): kvalifikatsionnaya rabota (bakalavr). – 2016. – S. 20.
28. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti: – B. 507 (G bo'limi).
29. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B. 69/ 164.
30. Akbarov A. Globalizatsiya davrida O'zbekiston va zamonaviy mamlakatlar til siyosati masalasi // Daryo.uz. – 2019. – 14 may.

31. Lingvoekologija // Didacts.ru: terminologik resurs. – URL: <https://didacts.ru/termin/lingvoekologija.html> (murojaat sanasi: 11.02.2026).

REFERENCE:

1. **Revolyutsion of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-239** (27 June 2024), “*On Additional Measures to Improve the Effectiveness of the System for Teaching Foreign Languages to Youth*”: Resolution. – URL: <https://lex.uz/docs/-6986619>.
2. **Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5850** (21 October 2019), “*On Measures to Radically Enhance the Status of the Uzbek Language as the State Language*”: Decree. – URL: <https://lex.uz/docs/-4561730>
3. Davletova, M. N. (2024). *The Intellectual Potential and Opportunities of Generation Z and Alpha in the Social State* // **Social, Philosophical, Economic and Political Issues of the Development of New Uzbekistan as a Legal, Secular and Social State**. May. p. 153.
4. Sharipova, S. A. (2024). *Neologisms in Modern Lexicography: Concepts and Approaches* // “**Ilm-fan yangiliklari**” Conference. Andijan, p. 149. – URL: <https://worldlyjournals.com/index.php/ztdvq/article/view/7271/11657>.
5. Rahimova, Z. Sh. (2023). *Jargon in the Uzbek Language and Related Phenomena* // **Journal of Universal Science Research**. p. 429. – URL: <https://zenodo.org/records/7662303>.
6. Axmadjonova, M. O. (2023). *Semantic Transformation of Loanwords from English in the Uzbek Language: An In-Depth Analysis* // **Central Asian Journal of Education**. p. 63.
7. Zhou, X. (2023). *Language and the Mind: How Language Shapes Our Thinking* // **Journal of World Languages**. Vol. 9, No. 3. p. 508.
8. Polcz, K., Hamsosvski, S., Huszár, E., Jám bor, E., Szigetváry, N., & Válóczy, M. (2023). *Translation Procedures in Secondary Term Formation across Languages in Online Glossaries: Universal or Language-Specific?* // **Across Languages and Cultures**. Vol. 24, No. 2. pp. 240–241.
9. Craft, J., Wright, K. E., Weissler, R. E., & Queen, R. (2020). *Language and Discrimination: Generating Meaning, Perceiving Identities and Discriminating Outcomes* // **Annual Review of Linguistics**. pp. 399–400.
10. Nambu, S. *Reflection on Japan’s Language Policy for English Loanwords* // **English Today**. pp. 1-10. – p. 2.
11. Rianto, S. (2024). *The Impact of Social Media on Language Use Among Teenagers* // **Focus Journal Language Review**. December. p. 36.

12. Mansurova, D. Sh. (2024). *Social Activity of the Youth of Uzbekistan in Digital Media* (Sotsialnaya aktivnost molodyoji Uzbekistana v tsifrovix media) // **Kognitivnye nauki v informatsionnom obshchestve**. Vol. 4, No. 2. pp. 7–8.
13. Voronkova, I. S. (2006). *On the Concepts of Exoticisms and Barbarisms* (O ponyatiyakh ekzotizmy i varvarizmy) // **Vestnik VSU. Series: Linguistics and Intercultural Communication**. No. 2. pp. 77–78.
14. Savitskaya, E. V. (2013). *Interpretation of a Linguistic Lacuna in Linguistic Literature* (Tolkovanie yazykovoy lakuny v lingvisticheskoy literature) // **Samara Scientific Bulletin**. No. 2. p. 48.
15. Irisqulov, M. T. (2009). *Introduction to Linguistics: A Scholarly-Methodological Publication*. pp. 118-119/256.
16. Babaxanova, D. A. (2024). *Stylistics of the Uzbek Language: Educational-Methodological Course Materials*. Namangan, p. 15/166.
17. Begmatov, E., & Mamatov, A. (1997). *Theory of the Literary Norm*. Tashkent: Navro‘z, pp. 58-59/137.
18. Usmanova, Sh. (2019). *Linguoculturology: Textbook*. Tashkent: Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, pp. 130/245.
19. Sayfullayeva, R., Mengliyev, B., Boqiyeva, G., Qurbonova, M., Yunusova, Z., & Abuzalova, M. (2009). *Modern Uzbek Literary Language*. – Tashkent: Fan va texnologiya, p. 74/414.
20. Vicentini, A. (2003). *The Economy Principle in Language* // **Mots Palabras Words**. No. 3. p. 38.
21. Osgood, C. E., Suci, G. J., & Tannenbaum, P. H. (1957). *The Measurement of Meaning*. Urbana: University of Illinois Press, p. 275.
22. Stell, G., & Yakpo, K. (2015). *Code-Switching between Structural and Sociolinguistic Perspectives*. Vol. 43. p. 179.
23. Crystal, D. (2003). *English as a Global Language*. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, p. 15.
24. Meyerhoff, M. (2006). *Introducing Sociolinguistics*. USA: Routledge, p. 43/404.
25. Quldashev, N. A. (2021). *Ecolinguistics: A Linguoculturological Study of Language and Speech Purity in the Uzbek Language*: PhD diss. Fergana, p. 20/142.
26. Axmedova, M. X. (2022). *Psycholinguistic Aspects of Uzbek Jargon Vocabulary*: abstract of DSc diss. p. 17/176.
27. Syan, Ch. (2016). *Functional-Semantic Features of Youth Slang (Based on Internet Forum Materials)*: qualification work (Bachelor’s thesis). p. 20.

28. *Explanatory Dictionary of the Uzbek Language*. – Tashkent: State Scientific Publishing House of the National Encyclopedia of Uzbekistan. – p. 507 (Letter “G” section).
29. Hojiyev, A. (2002). *Explanatory Dictionary of Linguistic Terms*. Tashkent: State Scientific Publishing House of the National Encyclopedia of Uzbekistan, p. 69/164.
30. Akbarov, A. *Language Policy Issues of Uzbekistan and Modern Countries in the Era of Globalization* // **Daryo.uz**. 14 May 2019.
31. *Ecolinguistics* (Lingvoekologija) // **Didacts.ru: Terminological Resource**. – URL: <https://didacts.ru/termin/lingvoekologija.html> (accessed: 11.02.2026)